SAFO (MUG‘ANNIY) OLLABERGANOVNI XOTIRLAB…

Echchanova Manzura Artiqboyevna,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20603733

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm musiqa va madaniyatining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Safo Ollaberganov – Safo Mug‘anniyning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. Unda san’atkorning og‘ir hayot yo‘li, xalq orasida tanilish jarayoni, Xorazm musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi hamda zamondoshlari va izdoshlarining xotiralari asosida uning shaxsiyati va ijodiy merosi tahlil qilingan. Shuningdek, Safo Mug‘anniyning xalq musiqa an’analarini saqlash va rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Safo Mug‘anniy, Safo Ollaberganov, Xorazm san’ati, musiqa madaniyati, bastakor, hofiz, xalq qo‘shiqlari, madaniy meros, Xiva, san’atkor.*

Аннотация. *В данной статье освещаются жизнь и творческая деятельность одного из ярких представителей музыкальной и культурной среды Хорезма – Сафо Оллаберганова (Сафо Муганни). На основе воспоминаний современников и последователей анализируются его жизненный путь, вклад в развитие музыкального искусства Хорезма, а также его творческое наследие и общественная деятельность. Особое внимание уделяется роли Сафо Муганни в сохранении и развитии традиций народной музыки.*

Ключевые слова: *Сафо Муганни, Сафо Оллаберганов, Хорезмское искусство, музыкальная культура, композитор, певец, народные песни, культурное наследие, Хива, деятель искусства.*

Annotation. *This article examines the life and creative activity of Safo Ollaberganov, known as Safo Mug‘anniy, one of the prominent representatives of Khorezm's musical and cultural heritage. Based on the memories of his contemporaries and followers, the study analyzes his difficult life journey, contribution to the development of Khorezm musical art, and his artistic legacy. The article also highlights Safo Mug‘anniy’s role in preserving and promoting traditional folk music and cultural values.*

Keywords: *Safo Mug‘anniy, Safo Ollaberganov, Khorezm art, musical culture, composer, singer, folk songs, cultural heritage, Khiva, artist.*

Kirish. Ma’lumki, yurtimizda tarixiy o‘tmishni chuqur, har tomonlama ilmiy, xolisona o‘rganish masalalariga keng imkoniyatlar yaratilgan.

Bundan ko‘zlanayotgan asosiy maqsad milliy o‘zlikni anglash, oldimizda turgan ulug‘vor vazifalarni samarali uddalashdir. Ajdodlarimiz kimlar? Ular bizga qanday ma’naviy va madaniy meros qoldirgan? O‘tmishimizning qanday shonli va fojiali sahifalari mavjud, ularning tub negizlarida qanday omillar yotibdi? Tariximizdan uning fojiali sahifalari hech qachon qaytarilmasligi uchun, qanday saboqlar chiqarishimiz lozim.

Ushbu savollarga javob berish mustaqil yurtimiz tarixshunosligining bosh vazifasini tashkil etadi. O‘tmishga yondashishning o‘zi nihoyatda murakkab va qiyin narsa. Moziyning faqat qora bo‘yoqlarda tasvirlab, ya’ni yomonlab, ta’riflash qanchalik noto‘g‘ri bo‘lsa, unga faqat madhiyalar o‘qish ham shunchalik foydasizdir.

Adabiyotlar tahlili. Safo Mug‘anniy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishda tarixiy, adabiy hamda publitsistik manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Xorazm madaniy muhiti, uning san’at va adabiyot namoyandalari faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar hamda davriy matbuot materiallari ushbu mavzuni yoritishda asosiy manba vazifasini bajaradi.

A.Jalolovning “Samarbaxsh saboqlar” nomli maqolasi, 1928-yilda nashr etilgan “Alanga” jurnalidagi ma’lumot, N. Qobulov, V. Mo‘minova va I. Haqqulovlarning “Avaz O‘tar va uning adabiy muhiti” asari, “Xorazm haqiqati” gazetasining 1967-yilgi sonlarida chop etilgan maqolalar, Mahdum Muhammad Ota Latif o‘g‘li Partavning xotiralari, Matyoqub Bobojonovning arxiv materiallari va xotiralari Safo Mug‘anniyning ijodiy merosi, uning xalq orasidagi mashhurligi hamda Xorazm san’ati rivojidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. Safo Mug‘anniy (Safo Ollaberganov) ning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishda tarixiy manbalar, davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari hamda zamondoshlarining xotiralari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy metod yordamida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazm madaniy muhiti hamda Safo Mug‘anniyning ushbu muhitdagi o‘rni o‘rganildi. Biografik metod asosida san’atkorning hayot yo‘li, ijodiy shakllanish bosqichlari va faoliyati bilan bog‘liq voqealar tahlil qilindi.

Shuningdek, manbashunoslik usuli orqali mavjud adabiyotlar, gazeta-jurnallarda chop etilgan maqolalar va arxiv materiallari o‘rganilib, ulardagi ma’lumotlar o‘zaro taqqoslandi.

Tahlil va sintez metodlari yordamida Safo Mug‘anniyning Xorazm musiqa madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, uning bastakorlik va ijrochilik faoliyati hamda madaniy merosining ahamiyati umumlashtirildi.

Tadqiqotda zamondoshlar va safdoshlar xotiralarini o‘rganish orqali og‘zaki tarix usulidan ham foydalanildi. Bu usul san’atkorning shaxsiy fazilatlari, ijodiy muhiti va xalq orasidagi obro‘- e’tiborini yanada to‘laroq yoritish imkonini berdi.

Natijada Safo Mug‘anniyning hayoti va ijodiy merosi tarixiy manbalar hamda xotiraviy materiallar asosida kompleks ravishda tahlil qilinib, uning Xorazm musiqa san’ati va madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlillar va natijalar. Tarixni o‘zgartirib bo‘lmaydi deydilar. Chunki, xohlaymizmi yo‘qmi u allaqachon yuz bergan. Lekin uni turlicha, istalgancha talqin qilish mumkin. Tabiiyki, tarixning ikir-chikirlarini, ya’ni ular qanday yuz bergan bo‘lsalar, xuddi shunday tarzda, hech qachon tiklab bo‘lmaydi. Biroq uning ichki mantiqiy mazmunini anglash va undan tegishli saboq chiqarish mumkin. Tarix ham siyosat bo‘lib u o‘tmishga

yo‘naltirilgan. Kimki shu kunni nazorat qilsa, u o‘tmishni ham nazorat qiladi, shuningdek, kim o‘tmishni nazorat qilsa kelajak ham unikidir. Demak tarixiy saboqlarning qiymati ularning joriy hayotdagi qiymati bilan o‘rganiladi.

Tarixdan yaxshi bilamizki, g‘ayriinsoniy g‘oya hukmron bo‘lgan mustabid tuzum o‘zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlab, ularning milliy va diniy tuyg‘ularini qo‘pol ravishda kamsitar, tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatar edi.

O‘z ona tilini, milliy an’ana va madaniyatini, o‘z tarixini bilmaslik ko‘plab odamlarni shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi. Milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan tabiiy intilish vahshiyona tarzda inkor etilardi, Navro‘z, Ramazon, Qurbon hayiti, kabi muqaddas diniy bayramlar ta’qiq etilardi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg‘oniy, Bahoviddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Xo‘ja Ahrori Valiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy ozodlik harakati fidoiylarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga intilar edilar. Bizga eski mustabid tuzumdan qolgan meros ana shulardan iborat edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida muhim ijtimoiy hodisalar yuz bergan davr hisoblanadi. Siyosiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar madaniy hayotga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. O‘zbek madaniyati, san’ati va adabiyoti taraqqiyotida, ko‘hna va navqiron Xorazm viloyatining o‘rni katta.

Xorazmda yetishib chiqqan buyuk olimlar, san’atkorlar va shoir adiblar nomi butun dunyoga mashhur bo‘lib ketgan. Ularning merosini chuqur o‘rganish, ulardan ibrat olishimiz lozim, lekin tarixiy siymolar hayotidagi, siyosiy faoliyatidagi va shaxsiyatidagi murakkabliklar hamisha ham odil yoki xolisona baholanavermagan.

Ana shunday insonlardan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan Avaz O‘tar, Bayoniy, Faqiriy, Mutrib, Chokar, Safo Mug‘anniy, Xudoybergan Devonov singari adabiyot, san’at va madaniyat ahllari bor edi.

O‘zbek xalqining taraqqiyoti va istiqbolga intilishini musiqa san’atisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. XX asrgacha musiqaning barcha kuylari va shakllari xonanda va sozandalar tomonidan ijod qilinib kelingan an’anaviy san’atdan iborat edi.

XIX asrning oxirlarida mashhur shoir va bastakor Pahlavon Niyoz Mirzaboshi - Komil "Xorazm tanbur notasi" deb yuritilgan "Tanbur chizig‘i" ni birinchi bo‘lib yozgan. XX asr boshlarida Komilning o‘g‘li Muhammad Rasul-mirzo /1850-1923/ Xorazm shashmaqomining yetti maqomida tanburga moslab nota yozgan.

Bayoniy, Mutrib, Safo Mug‘anniy, Matyoqub Harratov va uning o‘g‘li Chokar ham bir qancha asarlarga nota yozganligi haqida ma’lumotlar bor. Ular tomonidan yaratilgan

"Xon uyida nonimiz", "Isfandiyorxon qon oqizdi ariqdan", "Qora sochim dutorimga tor bo‘lg‘ay", "Chipradalli", "Bevafo zolim" kabi qo‘shiqlarga bastalangan kuylar hozir ham o‘z originalligini saqlab kelmoqda.

Bulardan tashqari Bekjon Rahmonov va chokarlar Xorazmda notaga olingan asarlarni va ijro etgan san’atkorlarning repertuaridan namunalar yig‘ib, 1925 yilda Moskvada "Xorazm muzika tarixi" nomi bilan nashr etdilar.

Inqilobdan ilgari maxsus muzika maktablarining yo‘qligi sababli Xorazm musiqasi og‘zaki an’anaviy san’at darajasida rivojlandi. Natijada Matyosuf Pozachi, Xudoybergan Muhrkon, Qalandar Do‘kmas, Xudoyberganov, Rizo baxshi, Suyar baxshi, Qurji ota Avazmatov, Matyoqub Harratov, Matyusuf Harratov - Chokar, Komil Devoniy, Muhammad Hasan hoji tabib o‘g‘li Mutrib, Safo Ollaberganov Mug‘anniy, Qurbon ota Ismoilov, Madrahim Yoqubov Sheroziy, Onajon xalfa, Onabibi qori Otajonova - Oyisha, Jumanazar baxshi, Iskandar Mahmud singari mashhur san’atkorlar qadimiy an’analarni davom qildirgan holda o‘zlari ham bir qancha musiqa asarlarini yaratdilar, yozma hamda og‘zaki adabiyot asarlariga kuy bastaladilar. Shuningdek ularning asarlarida o‘ynoqi satirik va yumoristik ashulalar hamda ularga bastalangan kuylar hali ham xalqimiz tomonidan e’zozlab kelinmoqda.

Shu o‘rinda Xorazm san’ati va madaniyati namoyondalaridan biri bo‘lgan Safo Mug‘anniy to‘g‘risida so‘z borarkan, xo‘sh bunchalik nomi chiqqan Safo Mug‘anniy kim edi?

Safo Ollaberganov 1882 yili Xiva tumanining Gandimyon qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan, u otasidan ikki yoshligida yetim qolib, besh yoshgacha o‘gay ota qo‘lida tarbiya olib, yoshligi achchiq alam va azob bilan o‘tgan.

Safoning onasi uni o‘gay ota qo‘lidan olib xivalik Javoq bo‘yoqchiga o‘g‘il qilib beradi, ammo bo‘yoqchi ham uni qiyinchilik davr bo‘lgani uchun boqa olmay haydab yuboradi. Uning hayotida mashaqqatli kunlar boshlanadi. Safo kun ko‘rish uchun o‘n yashar vaqtidan boshlab boylar eshigida ishlashga majbur bo‘ldi. Bechoraning qilmagan ishi, ko‘rmagan azobi qolmadi. Mol haydab poda boqdi, dehqonchilik qildi, poda boqib yurgan chog‘larida qamishdan nay yasab, xalq kuylarini mashq qila boshladi. Xorazm ashula va raqslarining o‘rganishga qiziqib ularni mashq qila boshlagan Safo tez kunlar ichida ularni o‘ziga xos ijro usullarining mohirlik bilan chala boshladi. Uning ijrochilik mahorati haqidagi ovoza tezda xalq orasida tarqalgan. Xorazmning mashhur sozanda va xonandalaridan kuy va qo‘shiqlar o‘rganishni davom ettirdi. Bolaligidan qiyinchilik, ochlik, xo‘rlik ko‘rib yurgan chog‘larida Safoning ko‘nglini ko‘taradigan, uning qayg‘uli hayotiga quvonch olib kiradigan birdan bir ovunchog‘i muzika, san’at, she’rlarni yod olish va uni ijro qilish bo‘lib qoldi. Safo Ollaberganov boshlang‘ich maktabni og‘ir vaziyatda tamomladi. U yoshlik chog‘laridan Navoiy, Fuzuliy va boshqa mumtoz, o‘sha vaqtlarda

maktab darsliklari hisoblangan asarlari bilan tanishdi, shu davrdan boshlab unda she’riyatga qiziqish boshlandi, san’atni chuqur his qilib uni ashula aytishga undadi.

O‘tmishda deydi Xiva shahridagi “Kirov” ko‘chasida yashovchi nafaqaxo‘r Matyoqub baxshi Rahmonov Safo Ollaberganovning zamondoshi o‘z xotiralarida:

“Inson qadri qimmati juda past edi. Garchi men madrasani bitkazgan bo‘lsamda xoru-zor yurar edim. Kunlarning birida nozikkina, qoracha bir yigit bilan uchrashib qoldim. Avvalo e’tibor bermadim, ziyofat quyuq bo‘ldi keyin haligi yigit birdan o‘ynoqi, sho‘x va mungli ashulalar ayta boshladi-ki, hayratdan yoqamni ushlab qoldim. Men qiziqib surishtirsam u Safo Ollaberganov ekan. Biz tanishdik, xarakterimiz bir-birimizga yoqib qolib suhbatlashdik, u menga o‘qish uchun yordam berishni so‘radi, meni o‘qitsangiz, kelajakda o‘z yo‘limni topib ketsam sizni unutmasman dedi. Shu-shu bo‘ldi-yu, men har kuni uni uyiga borib ikki soatdan dars bera boshladim, ilmga tashna, zehni o‘tkir bu shogird tez kunda ilmni mustahkamlab oldi. Men xalq sevgan bastakor, ajoyib xalq shoirini ilm olishda yordamim tekkani uchun o‘zimni baxtiyor deb hisoblayman”.

Mendan juda ko‘p tanish bilishlar Siz Safo sozchi bilan juda yaqin edingiz. Uning qaysi fazilatlari sizga ko‘proq ma’qul edi? - deb so‘rar edilar - deb o‘z xotiralarini bayon qilgan Mahdum Muhammad Ota Latif o‘g‘li Partav.

“Safo Sozchi yoki xalqimiz orasida Safo Mug‘anniy nomi bilan mashhur, ko‘p qo‘shiqlari elimizga manzur bo‘lgan Safo Ollabergan o‘g‘li bilan inqilob yillarida tanishdim. U vaqtlarda men 16-17 yoshlarda edim. Safo ustozim Muhammad Yusuf Bayoniy domla bilan (garchi yosh jihatidan bir-birlaridan ancha farq qilsada) juda qalin oshna edilar. Bu oshnolik anglashimcha, oddiy tanish bilishchilik bo‘lmay balki ijodiy hamkorlik darajasiga ko‘tarila olgan mafkuraviy hamjihatlik edi. Safo sozchi zukko tabiatli, hassos qalb egasi, adolatparvar, yomonlik va riyokorlikni o‘lgudek yomon ko‘ruvchi, nozik badiiy ta’b sohibi, yaxshi bastakor, ajoyib sozchi, ustoz hofiz va notiq sifatida xalq orasida katta obro‘-e’tibor qozondi. Undagi bu rang-barang iste’dod Xorazm inqilobi yillarida har jihatdan gullab yashnadi. Safo sozchi u davrning muhim muammolariga har vaqt hozir javoblik bilan "labbay" deb maydonga chiqardi. U ko‘pincha zamon voqealariga bag‘ishlab to‘qigan qo‘shiqlarini darhol Bayoniy huzuriga kelib namoyish qilar, u kishining fikr va mulohazalarini so‘rar, o‘zaro muhokama qilishardi. Ana shunday suhbatlarda men ham Mug‘anniy ijodi durdonalarining ilk tinglovchisi bo‘lishdek baxtga muyassar bo‘lar edim, ana shunday qilib men ham Safo sozchi bilan yaxshi oshno bo‘lib qoldim. 1921 yillarning oxiri va 1922 yil davomida sozchi meni o‘zi bilan turli yig‘inlarga, majlislarga, mitinglarga birga olib borar, sozi va qo‘shig‘i bilan yangi hayot, inqilobiy tashviqot ishlari bilan faol qatnashardi. Men ham yangi davr haqidagi yozgan she’rlarimni o‘qib boshladim. Bu odat bora-bora ijodiy hamkorlikka aylandi. Safo sozchi otashkalom inson edi. Inqilob dushmanlarini so‘z va soz

vositasi bilan hech tap tortmay beomon fosh qilardi. Shuning uchun inqilob va sho‘ro hokimiyati dushmanlari juda ko‘p marta uning payiga tushdilar lekin u juda dovyurak odam bo‘lganligi uchun cho‘chimasdan, aksincha yangi tuzum g‘animlarini fosh qilishda davom etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Safo sozchi o‘zgartirishlari jangavor, barcha uchun anglashinarli edi, ochig‘ini aytganda bunday fazilat kamdan-kam shoir va sozchiga nasib bo‘ladi. Safo mug‘anniy Xorazm inqilobi yillarida mana shunday a’lo fazilatlari bilan inqilobiy tuzumni mustahkamlash yo‘lida munosib, jon berib fidoyilik qildi. Aqli, idroki va qo‘lida sozi bilan xalqimizga xizmat qildi. U faqat bastakor shoir va sozchi bo‘libgina qolmay, ijodiy ishni to‘xtatmagan holda ko‘p rahbarlik lavozimlarida ham fidokarona mehnat qildi. Ha bunday otashkalom odamlarning xizmatini elimiz aslo unutmaydi. Uning tabarruk ruhi har vaqt biz bilan birga”.

Safo Mug‘anniyning safdoshlaridan yana biri Jurnalistlar uyushmasining a’zosi Xiva tuman mahalliy radio eshittirish tashkilotchisi Matyoqub Bobojonovning xotiralari:

"Ajoyib inson edi! Biz Safo Mug‘anniy bilan Xivaning Mevaston mahallasida yon qo‘shni bo‘lib yashar edik. U jangavor shoir, mohir artist, ijrochi va bastakor edi. U rubob, skripka, dutor, g‘ijjak, tanbur, childirma chalishni bilardi. Uni 1920 yil 2 fevralda xonni taxtdan ag‘darishda qatnashgani "Bos qadam ilgari, shonli Vatan o‘g‘illari", "Uyg‘oninglar og‘aynilar" degan jangavor inqilobiy qo‘shiqlari xalq o‘rasida tarqalib ketdi. Hamza* Xorazmga kelganida Safo Mug‘anniyning ijodiga qoyil qolgan edi. U 30-yillarda ayniqsa barakali ishladi. Xalq kuylarini qayta ishlab, ikki qismdan iborat inssenirovka ishlab chiqdi, bu xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketdi, keyinchalik yana yangisi ustida ish boshladi. Ammo buni nihoyasiga yetkaza olmadi. Shaxsga sig‘inishning qurboni bo‘ldi. Uning ulug‘vor ishlari doimo yodimizda".

Xulosa. Safo (Mug‘anniy) Ollaberganov –XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazm madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallagan iste’dodli san’atkor, bastakor hofiz va jamoat arboblaridan biri hisoblanadi. U murakkab va mashaqqatli hayot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lsa-da, o‘zining tabiiy iste’dodi, mehnatsevarligi va ilmga chanqoqligi tufayli xalq orasida katta hurmat va e’tibor qozongan. Safo Mug‘anniy Xorazm musiqa madaniyatining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib, xalq qo‘shiqlari va an’anaviy musiqa merosini saqlash, targ‘ib etish hamda boyitishda faol ishtirok etgan. U nafaqat mohir ijrochi va bastakor, balki zamonasining ijtimoiy-siyosiy voqealariga befarq bo‘lmagan, xalq manfaatlarini kuylagan ijodkor sifatida ham tanilgan. Zamondoshlari va safdoshlarining xotiralari uning yuksak insoniy fazilatlari, adolatparvarligi, fidoyiligi hamda san’atga bo‘lgan cheksiz muhabbatini yaqqol namoyon etadi.

Bugungu kunda Safo Mu’anniy qoldirgan boy ijodiy merosni o‘rganish, uning hayoti va faoliyatini tadqiq etish milliy madaniyatimiz tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Uning san’at va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi xalqimiz ma’naviy

merosining ajralmas qismi bo‘lib, kelajak avlodlar uchun ham muhim ma’naviy manba bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Jalolov. “O‘zbekiston ovozi” 1999. 10 aprel “Samarbaxsh saboqlar“ maqolasidan.
2. Alanga. 1928 y. 3/son, 14 bet.
3. "Avaz O‘tar va uning adabiy muhiti" N. Qobulov, V. Mo‘minova, I. Haqqulov. Toshkent 1987 y. 14-15 betlar.
4. “Xorazm Haqiqati”.1967.10-soni."Safo mug‘anniyga" sarlavha chiqarilgan sonidan.
5. “Toshkent oqshomi ro‘znomasi”. Mahdum Muhammad Ota Latif o‘g‘li Partav xotiralaridan. Filologiya fanlari nomzodi Muhsin Zokirov tomonidan 1953-1954 yillarda yozib olingan. Arxiv. 1967 yil 21 sentyabr.
6. Matyoqub Bobojonov, jurnalistlar uyushmasining a’zosi./Arxiv/. Xorazm haqiqati 1967 yil 11 oktyabr.